

201
A

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!
N:51 (67216)
2018-yil 17-dekabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

«SPARK» YANA SAMARQANDLIK QIZGA NASIB ETDI



Sh. MAXMADIYEV o'lgan surat

«Obunaning oltin qoidasi»ni yaxshi bilgan poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchilaridan 22 nafari ustozlari Dilorom opa Boymatova boshchiligidagi gazetamizga 2019-yil uchun obuna bo'ldi.

Tel:
(71) 244-63-08;
www.tongyulduzi.uz;
e-mail: info@tongyulduzi.uz;
telegram: t.me/tongyulduzi

«Tong yulduzi» gazetasiga
2019-yil uchun obuna
bo'lishga shoshiling!

Nashr
ko'rsatkichi
198

«SPARK» YANA SAMARQANDLIK QIZGA NASIB ETDI

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, gazetamizning avvalgi sonida «Bir maktabdan ikki kitobxon respublika bosqichida bellashadi» nomli maqola e'lon qilgan edik. Unda siz «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi g'oliblari – samarqandlik kitobxon tengdoshlaringiz bilan tanishgan edingiz.

Yaqinda ushbu ko'rik-tanlovning 10-14 yoshlilar o'rtasida bo'lib o'tgan respublika bosqichida ham sizga yaxshi tanish bo'lgan samarqandlik o'quvchilar muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ayniqsa, Paxtachi tumandagi 24-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi Mahliyo O'roqovaga teng keladigan raqib topilmadi va Prezident sovg'asi – «Spark» avtomobilini qo'lga kiritdi.

Har kuni 6-7 soat vaqtini kitob o'qishga ajratadigan, bugungi kunga qadar uch yuzdan ortiq badiiy asar o'qigan tengdoshingizni «Tong yulduzi» tahririyatiga taklif qildik. Mahliyo ota-onasi bilan birga tahririyatga kirib keldi. Salom-alikdan so'ng, shuni bilib oldikki, Mahliyoning ota-onasi o'sha maktabda faoliyat olib borar ekan. Otasi qorovul, onasi esa farrosh ekan. Shunday bo'lsa-da, bu oila boshliqlari kitobxonlikni yaxshi ko'radigan insonlar ekan. Shu bois, ular o'z farzandlariga katta e'tibor qaratib, yaxshi o'qishlari, bo'sh vaqtlarida kitobxonlik bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishgan ekan. Deyarli har kuni oila davrasida o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan bahs-munozara bo'lar ekan.

Bizning ham bu oilaga havasimiz keldi va ularning quvonchiga sherik bo'ldik. Oila boshlig'iga tezroq haydovchilar guvohnomasiga o'qib, Prezident sovg'asi – «Spark»ni mazza qilib



– Onam eng yaqin sirdoshim, – deydi Mahliyo.

mining, dedik-da, Mahliyoning so'zlariga quloq tutdik:

– Men darslardan bo'sh vaqtimda badiiy asarlar o'qish va xona gullarini parvarishlash bilan shug'ullanaman. Undan tashqari, tuman yoshlar ittifoqi Kengashining iste'dodli yoshlar yo'nalishi sardoriman. Tumanda bo'lib o'tadigan tanlovlar va tadbirlarda faol ishtirok etaman.

«Yosh kitobxon» tanlovidan g'oyat katta taassurot oldim. Tanlov sog'lom raqobat asosida o'tdi. Turli viloyatlardan kelgan eng zo'r kitobxon o'g'il-qizlar bilan tanishdim. Tengdoshlarimga shuni ishonch bilan ayta olamanki, sovg'a uchun emas, komil inson bo'lish uchun har kuni kitob o'qish kerak. Men ham bu tanlovda

«Spark» avtomashinasini qo'lga kiritish uchun emas, bilimimni oshirish uchun ishtirok etdim. Bu borada ota-onam va ustozim Nigora opa Husanovaning xizmatlari katta bo'ldi.



Yana shuni alohida aytib o'tmoqchimanki, o'tgan yilgi tanlovda gazeta va jurnallar uchun alohida shart ham bor edi. Lekin bu yil ushbu shart olib tashlanibdi. Fikrimcha, ushbu sinovga, albatta, bolalar nashrlari – «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan» hamda «G'uncha» gazeta-jurnallari kiritilishi kerak edi, – dedi kuyunchaklik bilan kitobxon tengdoshingiz.

Mahliyoning aytgan fikrlari juda to'g'ri. Aslida, sevimli yozuvchi va shoirlarning ilk asarlari kitob holiga kelgunga qadar aynan ana shu bolalar nashrlarida chop etiladi. Shu bois, kitobxonlik, eng avvalo, gazeta-jurnal o'qishdan, kundalik yangiliklar bilan tanishishdan boshlanadi, degan gap bejizga takror va takror aytilmaydi-da.

Feruza SOYIBJON qizi



Toshtemir aka O'roqovlar oilasiga Prezident sovg'asi – «Spark» avtomashinasini muborak bo'lsin!

Otam qishloq maktabida uzoq yillar muallim bo'lib ishlagan. Esimda, bolaligimizda ular yumushlardan ortib, hovlimiz etagidagi pastakkina uy (bu ularning darsxonasi edi)da allamahalgacha kitob varaqlab, qog'oz qoralashdan tolmasdi.

Bir kuni xonalariga kirsam, qandaydir jurnalni qo'llariga olib, diqqat bilan mutolaa qilayotgan ekanlar. Ular menga yuzlanib, «O'g'lim, hozir ertangi darsga tayyorlanayapman, halal bermagin», dedilar-da, yana o'z ishiga tutindilar. Qizig'i, muqovasiga «Xalq ta'limi» deb yozilgan o'sha jurnalni yana ko'p bor otamning qo'llarida ko'rdim. Keyinchalik bildimki, bu jurnal ustoz va muallimlarning yaqin hamrohi, ishonchli do'sti ekan...


«XALQ TA'LIMI» JURNALI 100 YOSHGA TO'LDI

Yurtimizdagi ommaviy axborot vositalari orasida «Xalq ta'limi» jurnali o'zining so'zi, shakli-u shamoyiliga ega nashr hisoblanadi. Mazkur nashr tashkil etilganiga bu yil roppa-rosa bir asr to'ldi.

Uning tarixi bilan tanishar ekanmiz, jurnal o'sha kezlarda nafaqat Vatanimiz, balki chet davlatlarda ham katta qiziqish bilan muto-

texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilishda o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'taydi. 2015-yildan «Xalq ta'limi» ilmiy-metodik jurnaling muntazim davomi – «Xalq ta'limi axborotnomasi» jurnali nashr etib kelinmoqda.

Aziz o'quvchilar, yaqin kunlarda poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi muassisligidagi «Xalq ta'limi» jurnaliga asos solin-



laa qilinganiga amin bo'ldik. Jurnal bugun ham minglab o'quvchilariga, qadrdon mush-tariylariga ega. Ular safida yurtimizdagi eng ilg'or, zamon bilan hamnafas fikrlaydigan ustozlar, ona Vatanimiz ke-lajagi bo'lgan yoshlarni ezgu maqsad yo'lida birlashtiradigan fidoyi muallimlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. O'z navbatida, jurnal ham ziyo-lilarni, o'qituvchi

va murabbiylarni yanada savodli qilish, ularning ilg'or ish tajribalarini ommalash-tirish, kasb fidoyilarini xal-qimizga yaqindan tanitishni asosiy maqsad qilgan. Bir so'z bilan aytganda, «Xalq ta'limi» jurnali ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlarni pedagoglar va keng xalq ommasiga yetkazish minbariga aylandi.

Uning sahifalarida ijtimoiy sohalarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning nazariy g'oyalari, metodik yondashuvlari, ilmiy xulosalari muntazam tarzda berib borilib, mazkur tadqiqotlarni ustozlar hukmiga havola etish, tavsiya etilayotgan samarali pedagogik

ganining 100 yilligi munosabati bilan «Xalq ta'limi»: bir maqsad, bir maslak, bir asr» mavzusida bayram tadbirlari bo'lib o'tadi.

Xalqimizga, elimizga ziyo tarqatishdek ezgu ishni, mas'uliyat va sharafli vazifani o'z zimmasiga olgan jurnalning bir asrlik to'yi muborak bo'lsin. Hali yillar, zamonlar o'tadi, asrlar kechadi, «Xalq ta'limi» jurnali mazmuni yanada boyib, turkum maqolalari bilan necha-necha avlodlarga xizmat qiladi.

Aziz o'quvchilar, Siz va mehribon ustozlaringizni ham ushbu bayramda ishtirok etishga taklif etamiz.

S. TURSUNOV

EZGULIK URUG'IN EKIB...

Bugun adabiyot ixlosmandlari orziqib kutgan kun. Boisi, shoira Gavhar Ibodullayeva maktabimizga tashrif buyurdilar. Mehmon mayin tabassum bilan o'zining yoshlik yillari, ijodiy faoliyati haqida so'zlar ekan, «Yangibozor tumanidagi ushbu maktab sahnasi mening shoira Gavharjon Ibodullayeva bo'lib tanilishiga sabab bo'ldi», deydi.

Ular bugungi yoshlar vaqtinchalik ho-yu havasga berilib, mutolaa zavqidan bebahra qolmasligi, qalb go'zalligi uchun har kuni ikki sahifa kitob o'qish kerakligini ta'kidladi.

Uchrashuv davomida o'quvchilar yod olgan she'rlari-yu qo'shiqlari bilan kechaga yanada fayz bag'ishladi.

Gavhar opani gullar bilan kuzatar ekanmiz, shoiraga nisbatan cheksiz hurmatni his qildim. Ularning aytgan so'zlari tufayli o'quvchilar qalbidagi ezgulik urug'lari gullab, meva tugishiga ishonch hosil qildim.

Shohida AYTMETOVA,
Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi
1-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

YAXSHI DO'ST

Hozirgi davrda fan, texnika juda rivojlanib ketdi. Kompyuter, uyali aloqa vositasi deyarli barcha insonda bor. Odamlar har kuni internet orqali yangiliklardan xabardor bo'lib tursa-da, gazeta va jurnallar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bosma nashrlarni saqlab qo'ysangiz, zarurat tug'ilganda o'qish mumkin.

Men kutubxonachilik faoliyatim davomida bu yilgidek erkinlikni ko'rmadim. Chunki joriy yil gazetalariga obuna bo'lishda barchaga keng erkinlik berildi. Bu orqali o'quvchilar o'zlari istagan nashrlarga obuna bo'lish imkoniga ega bo'ldilar.

Yoshligimda «Tong yulduzi» gazetasini oilamiz davrasida singillarim bilan birga o'qirdik. Kutubxonaga keladigan o'quvchilar ham ushbu gazetaga obuna bo'lishyapti. Bu qadrdon nashr sifatli, rang-barang, qiziqarli va kerakli ma'lumotlarga boy. Eng muhimi, ushbu gazeta o'quvchilar uchun eng yaxshi do'st, deb ayta olaman.

Umidaxon QORABOSHEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
1-umumta'lim maktabi kutubxonachisi

«UMID»DAN UMIDIMIZ KATTA

Bugun yurtimizda ijodkor yoshlar uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilayotganini tengdoshlarim yaxshi bilishadi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida faoliyat olib borayotgan adabiy-ijodiy to'garak esa biz yosh qalamkashlar uchun yanada keng imkoniyatlarni tuhfa etmoqda.

Yaqinda ish boshlagan «Umid» to'garagi nasr yo'nalishida qalam tebratadigan yosh ijodkorlarga quvonch ulashdi. Men ham ushbu to'garakka a'zo bo'lar ekanman, bu yerdagi ijodiy muhitdan mamnun bo'ldim. Hozirda ustozlarimiz Nurilla Chori va Nodirabegim Ibrohimova bizga hikoya-yu ocherk kabi turli janrlarda ijod qilishning qonun-qoidalarini o'rgatmoqda. Agar sizda ham to'garakka a'zo bo'lish istagi tug'ilgan bo'lsa, marhamat, safimizga qo'shiling!

Vazira MARDIYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining
10-«D» sinf o'quvchisi

Kitobxon minbari

O'zbek hikoyachiligida o'ziga xos maktab yaratib ketgan betakror adib,
O'zbekiston xalq yozuvchisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sovrindori Shukur
Xolmirzayev men sevgan ijodkoridir.

U turli janrlarda badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Adibning rang-barang mavzulardagi hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari kitobxonlar qalbini zabt etgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qolaversa, Shukur Xolmirzayevning qahramonlari tilining rang-barangligi o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Adib ko'p asarlarini Do'rmon ijod uyidagi so'lim bog'ida yozib, ularni tahririyatlarga olib borgan ekan. Shu tariqa muxlislar qo'lga yangi-yangi asarlar yetib borgan. Ustoz boshqa yozuvchilar kabi hikoyalarini kitob qilib chop etishga shoshmagan ekan.

Bir kuni el suygani ijodkor Erkin Malikning xonadonlariga ish yuzasidan bordim. Ular, «Kel, bolam, ichkariga kir», deya meni ijodxonala-

riga taklif qildilar. Stol ustida taxlanib turgan Shukur akaning kitoblari tikilib turganinni ko'rgan ustoz: «Bu yozuvchining kitoblari menga ilhom baxsh etadi», dedilar adibning asarlariga ishora qilib.

Aziz tengdoshlar! Ma'naviy olamingizni boyitish uchun, albatta, sizga ushbu adibning asarlarini o'qishni tavsiya qilaman.

Zero, yozuvchi suhbatlarining birida «Adabiyotni qismatim deb bilaman. Men shunday hayotning xumoriman», deb yozgan edi. Bu adibning qon-qoniga singib ketgan, yurakdan aytgan dilrozi edi.

Ibrohim RIXSIBOYEV,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
1-umumta'lim maktabi 10-sinf o'quvchisi



Agar Hoshimjon kabi boshga sehrli qalpoqchani kiyib, biror-bir kasb egasiga aylanish imkonini bo'lganida, kim bo'lib qolishni orzu qilardingiz? Balki men kabi muxbir bo'lib, o'quv maskanlaridagi bir-biridan ajoyib tadbirlarning guvohiga aylanishni istarsiz?!

«TONG YULDUZI»NI IZLAGAN BOLALAR



Ha, har kuni turli maktablarda bo'lar ekanmiz, Hoshimjonning ta'biri bilan aytganda, yangidan-yangi sarguzashtlarni boshdan kechiramiz. Bu haqda biroz keyinroq to'xtalamiz.

Shu desangiz, bu safar poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabidagi maroqli uchrashuvga bordik. Qaldirg'ochlar kabi bir qator tizilgan bolajonlar davrasida biz ham beixtiyor yayrab ketdik. Bilishimizcha, shu oy mazkur maktabda bayramlarning keti uzilmayotgan ekan. Bosh Qomusimiz qabul qilingan kun deysizmi, boshlang'ich sinflar fan oyligi doirasidagi tadbirlarmi, xullas, bu qaqajonlarning har bir kuni maroqli o'tayotgan ekan. Shu bois, maktab rahbari Nasiba opa Nazarova, kutubxonachi Vasila opa Saidova va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni xursand qilish istagida bizni o'quv dargohiga taklif etishibdi.

Tadbir davomida bolajonlarning turli chiqishlarini tomosha qilib, ular bilan dildan suhbatlashdik. So'ng esa maktab kutubxonasiga yo'l oldik. Bu nurli maskanda ustozlar bilan uchrashuvni davom

ettirarkanmiz, eshikdan ikki bolakay ichkariga bosh suqdi. Barchaga salom bergach, 4-«G» sinf o'quvchilari Muhammad Sodiq Shonvarov va Ibrohim Avazov kutubxonachi opalariga yuzlanishdi:

– Ustoz, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lgandik, gazetamizni olsak maylimi?

Shu payt barchaning yuziga tabassum yugurdi. So'ng, Vasila opa o'quvchilarga tushuntira boshladi:

– Sizlar 2019-yil uchun obuna bo'lgansiz, Yangi yil bayramidan keyin har haftada bir marotaba gazeta olasizlar. Agar hozir o'qigingiz kelayotgan bo'lsa, keling, yangi sonidan beraman. O'qib chiqinglar.

Shunday qilib, gazeta izlagan ikki sinfdosh mamnun holda kutubxonadan chiqib ketishdi. Biz esa bu maskanda ana shunday faol o'quvchilarni borligidan quvondik. Va ularga ilm berib, ma'rifatga chorlagan ustozlarga rahmatlar aytdik.

Axtamqul KARIMOV,
Sayyora QODIROVA

Kimki o'rganishni uyat, or demas,
Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos.

N. GANJAVIY

VATANINGA DIL IZHORI



**Maktabimizda
«Vatanimga
dil izhori» deb
nomlangan
tadbir tashkil
qilindi.**

Tadbir musobaqa tarzida o'tkazilib, unda maktabning 6-sinf o'quvchilari tanishtiruv, tezkor savollar, vatanparvarlik ruhini namoyon qiluvchi sahna ko'rinishi shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi. O'quvchilarning chiqishlari maktab psixologi Surayyo Abidova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Shohida Samadova tomonidan baholab borildi.

Yakunda maktabning 6-«B» sinf o'quvchilari 1-, 6-«A» sinf 2-, 6-«V» sinf jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblar diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Nursulton RAYIMOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
157-umumta'lim maktabining
Yoshlar ittifoqi yetakchisi**

KITOB VA TARBIYA – EGIZAK

Poytaxtimizdagi «Turon» axborot-kutubxona markazi qoshidagi «Kitobsevarlar klubi»ning navbatdagi uchrashuv ishtirokchilari Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 213-va Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktablarining o'quvchilari bo'ldilar.

Tadbirda kitob va mutolaa orqali komil insonni tarbiyalash mavzusida qiziqarli bahs bo'lib o'tdi. Ushbu dolzarb mavzuda «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri o'rinbosari, yozuvchi va publitsist Ashurali Jo'rayev, taniqli shoir Davron Rajabning qiziqarli ma'ruzalari savol-javoblarga boy bo'ldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi «Onajonim she'riyat» to'garagi a'zolari, 206-umumta'lim maktabi o'quvchilari – Gulbayoz Hamroyeva, Munisa Valiyeva, Aziza Saodatova o'z ijodlaridan namunalari o'qib berdilar. Ayniqsa, ushbu maktabning 2-«G» sinf o'quvchisi Murodilla Muzaffarov taniqli

shoira Zulfiya Mo'minovaning «Bolaga kitob bering» she'riini ifodali o'qib bergani davra qatnashchilarining olqishiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, tadbirda shu kunlarda 90-yilligi keng nishonlanayotgan mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning «Asrni qaritgan kun» romani asosida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan «Nayman ona faryodi» deb nomlangan sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Kitob va tarbiya uyg'unligiga bag'ishlangan ushbu tadbirda faol qatnashgan o'quvchilarga yangi kitoblari sovg'a qilindi.

Nigora JO'RAYEVA

Jamshid maktab faxri

«Intilganga tole yor», deydi dono xalqimiz. Chindan ham inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari intilib yashasa, albatta, orzulariga erishadi.



Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi 26-umumta'lim maktabi eng ilg'or bilim maskanlaridan biri sanaladi. Yalgashbay Shamuratov rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskanida tashkil qilingan sport, musiqa hamda fan to'garaklari o'quvchilar bilan doimo gavjum. To'garak a'zolari turli tanlov va musobaqalarda faol qatnashib,

yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

Ana shunday o'quvchilardan biri Jamshid Rajabovdir. U 10-sinfda a'lo baholarga o'qiydi. Tengdoshingiz informatika va matematika fanlariga juda qiziqadi. Jamshid 2017–2018-o'quv yilida o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida 2-o'rinni, joriy yil ushbu fan bo'yicha o'tkazilgan Innovatsion olimpiadaning dastlab tuman, so'ngra Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib, medal hamda sertifikat bilan taqdirlandi.

U yana «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida o'zi yaratgan dastur hamda loyihasi bilan faxrli o'ringa sazovor bo'ldi. Jamshidning bunday yutuqlarga erishishida ustози Akbarali Shomuratovning xizmati beqiyos.

Turli tanlovlar va bellashuvlarda o'z so'zini ayta olayotgan qoraqalpoq yoshlariga kelgusida yanada ulkan zafarlar tilaymiz. Hali bu maktabda tahsil olayotgan Jamshid singari intiluvchan o'quvchilar haqida ko'p marta to'xtalamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

MUALLIF

ISHTIROKIDAGI DARS

Dekabr – boshlang'ich sinflar fani oyli. Shu munosabat bilan Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida «Ochiq eshiklar kuni» o'tkazildi.

Unda Dilfuza Oripova, Aziza Jamolova, Dilobar Xo'jayeva kabi ustozlarning ochiq darslari kuzatildi. Ayniqsa, Nozima Usmonovaning 2-«D» sinfidagi o'qish fanidan o'tkazgan darsi interfaol usullarga boyligi, noan'anaviyligi bilan barchada katta qiziqish uyg'otdi. Darsni o'qituvchi bilan hamkorlikda «Gulxan» jurnali Bosh muharriri Zahro Hasanova olib bordi. Yangi mavzu – «Tog' malikasi» hikoyasining muallifi Zahro Hasanova o'quvchilarni dars davomida baholab bordi, matn yuzasidan berilgan savollarga atroflicha javob berdi. Uch guruh – «Yaxmalak», «Sumalak», «Qorbobo» guruhi a'zolari shoiraning «Yostiqlarcham», «Qorbobo», «Mustaqillik archasi» kabi she'rlarini ifodali aytib berishdi.

– Bugungi darsda o'qituvchi bo'lganimdan, o'quvchilarning burro javoblaridan rosa yayradim, – deydi Zahro Hasanova. – She'riyatga oshno, bilimga tashna bolajonlarning mavzuni to'la ochib berolganlaridan mamnun bo'ldim.

Dars so'nggida muallif o'zining «Ko'zmunchog'im» kitobini g'olib guruh a'zolariga taqdim etdi.

Mahmuda VALIYEVA

Bir maktabda qo'sh tadbir

Mazkur maktabda tashkil etilgan yana bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirda maktab rahbari Sayfulla Mahkamov so'zga chiqib, inson kamolotida mutolaaning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidladilar.

Shundan so'ng, so'z navbati tibbiyot fanlari doktori, professor Erkin Tursunovga berildi. Ustoz dastlab yig'ilganlarga o'z bolaliklari haqida gapirib berdilar.

– Inson uchun bu hayotda eng qimmatli narsa vaqtdir. «Vaqtning ketdi, naqding ketdi», degan maqol ham bejizga aytilmagan. Shu bois, undan to'g'ri va oqilona foydalanish kerak. Ba'zi yoshlarni ko'chalarda o'tirib, befoyda mavzularda suhbatlashishlarini umuman oqlamayman. Agar inson o'z ustida tinimsiz ishlasa, biror ishni sidqidildan bajarsa, albatta, ko'zlagan maqsadiga erishadi, – deydi Erkin aka. So'ng, yig'ilganlarga o'z ijod namunalaridan o'qib berdilar. Shuningdek, Nargiza Azizova rahbarlik qilayotgan 3-«A» sinf o'quvchilari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar kechaga yanada fayz bag'ishladi.

So'z navbati Gulchehra Karimova hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Axtamquliga berildi. Ular o'z chiqishlarida bolalik bilan bog'liq kechinmalarini hayotiy voqealar asosida so'zlab berishdi. So'ngra, 6-«E» sinf o'quvchilari Shirin Rustamova va Nilufar To'rayeva sho'x qo'shiq va raqslar ijro etishdi.

Muzaffar AHMEDOV



6 DAQIQA GAZETA O'QISHNING FOYDASI

Shu kunlarda obuna mavsumi o'zining eng qizg'in pallasiga kirib ulgurdi. Ayni paytda mamlakatimizdagi o'quvchi-yoshlar o'zlari sevgan gazeta va jurnallarga obuna bo'lmoqdalar. E'tiborlisi, Respublika bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy xodimlari ham yurtimizdagi ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Ana shunday qiziqarli uchrashuvlar poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-, Olmazor tumanidagi 249-, Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lim maktablarida ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Mazkur ijodiy uchrashuvlar qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'lib, ota-onalar, pedagoglar, o'quvchilar va kutubxonachilar bolalar nashrlarining yanada o'qimishli, qiziqarli va rang-barang bo'lishi uchun o'z taklif-mulohazalarini bildirdilar.

– Ushbu tadbirda «Tong yulduzi» gazetasi haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldim. Bizga ushbu nashrning yangi soni bilan birga, 2019-yil uchun mo'ljallangan taqvim sovg'a qilindi. Qizimning so'z boyligini oshirish, tasavvur olamini boyitish, iqtidorini shakllantirib borish uchun «G'uncha» jurnali hamda «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishni niyat qildim,– deydi Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 300-IDUMning 1-«A» sinf o'quvchisi E'zozabonu Pozilovaning onasi Dilnozaxon Pozilova.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 275-umumta'lim maktabi kutubxonachisi Mavjuda Mirsaidovanning «Gazeta qoshida ijodkor o'quvchilar uchun to'g'arak faoliyat yuritadimi?» deya bergan savoliga uchrashuvda bevosita qatnashgan tahririyatimiz xodimi «Tong yulduzi»

gazetasining barcha muharrirlari har bir yosh ijodkorga o'zlarining qimmatli maslahatlarini berishga tayyor, deya aytib o'tdilar. Bu borada Surxondaryo, Andijon, Farg'ona, Xorazm va Jizzax viloyatlari o'quvchilari, o'qituvchilari hamda ota-onalari faolligi alohida ta'kidlandi.

– Ba'zan dugonalarim maktabga gazeta o'z vaqtida kelmasligi, shu sababli, turli tanlovlar hamda ta'limga oid yangiliklardan bexabar qolib ketayotganliklarini aytishadi. Meni ota-onam esa farzandlarni bolalar nashrlari uchun uyimizga obuna qiladi. Shu bois, gazeta o'z vaqtida qo'limizga yetib keladi,– deydi Olmazor tumanidagi faol gazetxonlarimizdan biri Maftuna Muhammadjonova.

Angliyalik bir guruh olimlar kun davomida 6



«Boylikni bolalikdan asrang» tanlovining bu yilgi g'oliblaridan biri poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Mumtozabonu Faxriddinova bo'ldi.

daqiq gazeta yoki kitob o'qigan insonda yurak urishi normal bo'lishi va tomirlarning zo'riqishi kamayishini kuzatishgan. Shuningdek, AQSHning Yel universitetidagi olimlar kitob, gazeta va jurnal o'qiydigan insonlar bilan 12 yil tajriba o'tkazib, haftada 3-4 soat vaqtini mutolaa qilayotganlarga nisbatan 23 foiz kam bo'lishini aniqlashgan.

Shunday ekan, yurtimizdagi barcha ustoz va murabbiylarni, ilmda chanqoq o'quvchilarni gazeta va jurnallarga faol obuna bo'lishga chorlaymiz.

O'z muxbirlarimiz

Lesson 51

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

WHAT IS DIFFERENCE BETWEEN «IN TIME» AND «ON TIME»

Ingliz tilida vaqt bilan aloqador fikrlarni ifodalash eng muhim saboqlardan biridir. **On time** va **in time** yordamida ifodalangan vaqt tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa ham ular orasida farq mavjud.

On time ifodasi biror ish-harakat belgilangan vaqt chegarasida sodir bo'lishini bildiradi. Jadval asosida bajariladigan harakatlarga nisbatan ko'pincha shu jumla qo'llaniladi.

Misol:

My flight is on time, so I'll meet you at the airport at 6.

In time ifodasi biror ish-harakatni belgilangan vaqtga qadar bajarilishini bildiradi. Bunda harakat belgilangan so'nggi fursatda emas, balki undan oldinroq bajariladi.

Misol:

If you have reached here in time, we had not missed the beginning of theatre.

«**In the nick of time**» iborasini so'nggi soniyalarda qandaydir ish harakat bajarilishiga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda harakat bajarilishi uchun so'nggi kuch sarflanib, bor imkoniyatdan foydalaniladi.

Misol: **Alisher managed to get on the bus in the nick of time.**

M. FAYZULLAYEV

TENSE GAME

Read the sentences and find their tenses. The key words will help you.

1. He was talking with his friend at five o'clock. – past continuous
2. He'll still be working at six o'clock. –
3. We'll cooking a cake all day tomorrow. –
4. He has already read his book. –
5. Do you speak French? –
6. I go to school every day. –
7. I'll ask him about it. –



Dinora ABDULLAJONOVA

WHO IS NIMBLENESS?

Full fill the gaps with necessary words.

Library, lyceum class, Paris, picture, a champion, yesterday

1. Yesterday was the coldest day of the December.
2. There is an interesting... near our house.
3. My best friend is a... student.
4. Last week I drew a... it was the most beautiful picture of the...
5. My eldest brother is... from chess.
6. Have you ever been in...?

Circle the odd word

1. Stomach, teeth, tongue, headache,
2. Dentist, nurse, surgeon,
3. Bread, cake, sweet, meat patty,
4. Pain, ill, well, tired,
5. Hospital, medicine, injection, spirit,
6. Rule, rubber, pencil-box, stadium.

Ma'mura G'ULOMOVA



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

MY FAVORITE HERO IS...

Match the pictures with the names



- «Pinocchio» by Carlo Collodi.
- «Alice in the wonderland» by Charles Lutwidge
- Aladdin
- «Oliver Twist» by Charles Dickens
- «Shum bola» by Gafur Gulom

Dilnura BAHADIROVA,
the pupil of school № 1st in
Koshkopir district, Khorezm region

BU DUNYODA FAQAT O'ZGARMAS VATAN!

...Quyosh yuz ko'rsatar har kun boshqacha,
Kun-u tun o'zgarar: qisqa yo uzun.
Hatto sukut bosib yotgan toshgacha,
Tuslanar yeylanib, eylanib to'zib.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

Havoning avzoyi turlanar damda,
Lahzada o'zgarib boradi iqlim.
Yog'in ado, yog'in paydo qadamda,
Dayrolar goh hayrang, goh suvga lim-lim.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

Tog'lar balandlaydi, tog'lar pasayar,
Suyanch qoyalarin qurbi mo'rt tortib.
Oy to'ri to'lg'in, oy nuri susayar,
Ko'k zebi – yulduzlar jilvasi yorti.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

Rostlar yolg'onlarga yon bosar gohi,
Gohida yolg'on ham rostday chog'lanar.
Vaqt arqog'in yo'rib, yigirib, eh-he,
Quvonchga bog'lanar, g'amga bog'lanar.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

Bo'yiga, eniga mahliyo, saxtli,
Ne qal'a qo'rg'onlar munkayar nurab.

Davronlar, boyliklar chang, g'ubor taxlit,
Shamollar izmida uchar chirpirab.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

Manzillar, makonlar haddini yo'nib,
Betoqat yugurar qo'nimsiz yo'llar.
Ortqa qolaverar armonga do'nib,
Umr kosasidan to'kilgan yillar.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

O'zgarar ixloslar, qarashlar pay-pay,
Uzilar metinday rishtalar... Faqat...
Mo'g'jalari bo'lug' sobit daraxtday,
Ruhda tomir otgan Ulug' HAQIQAT –
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan!

...Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – tarix hikmati.
Vatan – qismatga jodir,
Vatan – haqiqat qati.

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – suvrat-u siyrat.
Vatan – munirli yodir,
Vatan – malham-u tiyrat.

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – jovid sadoqat.
Vatan – zehn-u ziyodir,
Vatan – toqatga toqat.



Ikrom OTAMURODOV, shoir

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – nurli nurafshon.
Vatan – ongda imdodir,
Vatan – oqibatga shon.

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – mehr-u muruvvat.
Vatan – elga bahodir,
Vatan – kangulda qat-qat.

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – dunyoga qurbat.
Vatan – sehr-u sinodir,
Vatan – dunyoga qudrat.

Vatan – qadim dunyodir,
Vatan – tarix hikmati.
Vatan – qismatga jodir,
Vatan – Haqiqat qati ...



OMAD QUSHI BO'LSIN YOR!

Men kurashchi bo'laman,
Medallar ham olaman.
Tabiatdan kuch olib,
Polvon bola bo'laman.

Yurtimni polvonlari,
Jasur, mard o'g'lonlari.
Sizga ishonch, mardlik bor,
Omad qushi bo'lsin yor!

Umidjon AHMEDOV,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi
43-umumta'lim maktabining
4-«B» sinf o'quvchisi

IFTIXOR

Men o'zbek farzandiman,
Ko'ksimdadir g'ururim.
Kitobim bo'lsa qo'lda,
Dilda o'chmas shuurim,
Men – o'zbek farzandiman!

Mehr ko'zli momosi,
Oppoq soqol bobosi.
Tog'dagi gul lolasi –
Mehnatkash har bolasi,
Men – o'zbek farzandiman!

Shoiralik merosdir,
Uvaysiy, Nodiradan.
Ushbu she'r baxshidadir,
Bo'lajak shoiradan,
Men – o'zbek farzandiman!

Sevara ABDUQAYUMOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi
37-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

Ilhomjon ismli bolaning singan o'yinchoqlaridan
robot yasagani, bu robot tilga kirib, gapira bosh-
lagani haqida so'zlab bergan edim.

Bugun ertakning davomini aytib beraman. Siz esa
diqqat bilan tinglang. Ilhomjon o'zi yasagan
yangi o'yinchoq – robotni darrov bobosi,
buvijonisi, dadasi va oyisiga ko'rsatmoqchi
bo'libdi. Keyin esa bu fikridan qaytibdi. Chunki
yosh ixtirochi ularni hay-
ron qoldirishni maqsad
qilib qo'yibdi-da. Le-
kin, nimadan
boshlash ke-
rak? Robotga
biror ish buyu-
rib ko'rsa-chi?
Bajarmikan?
– Temur, –
debdi Ilhomjon.
– Biror yumush
aytsam, bajara-
sanmi?

– Al-bat-ta, ba-ja-ra-
man! – debdi robot. – Biz
ik-ka-la-miz do'st-miz.
Do'st uchun ham-ma nar-
sa-ni qi-lish lozim. Ni-ma
ish qi-li-shim ke-rak?

– Shkafning tepasidagi vazada konfet bor.
Shundan bitta menga, bitta o'zingga ol. Mazza
qilib yeymiz.

– Men kon-fet ye-mayman. Men kon-fet ye-may-
man, – debdi robot.

– Sen qiziq robot ekansan. O'zing yemasang,
unda menga olib beraqol. Juda shirin, mazza
qilaman!

– Sen-ga o-lib be-rol-may-man. O-ying rux-sat
ber-gan-mi?

– Oyim hozir uyda yo'qlar, ishdan kelmaganlar.
Bitta konfet olsam, ular bilmaydilar. Iltimos, olib
beraqol. Hech kim ko'rmaydi. Tez yeb olaman.


– Kon-fet olib be-rol-may-man. O-ying kelib,
ruxsat ber-sa-lar, o-lib be-ra-man.

– Qiziq ekansan-ku. Senga baribir emasmi?
Vazada konfet ko'p. Bitta olsam, kamayib qolmaydi.
Olib beraqol. Bo'lmasa, sen egilib tur, men ustingga
chiqib ovolan, maylimi?

– Men eg-i-lib,
tu-rol-may-man.
Sen kon-fet o-lol-
may-san. Av-val
o-ying-dan so'-ra.
Rux-sat ber-sa-lar,
o-lib be-ra-man.

– Hech gap-
ga tushunmas
ekansan. Oyim ish-
dalar, men atigi
bittagina konfet
olaman. May-
li, sen yordam
bermasang,
o'zim olaman.
Stul qo'ysam, qo'lim
yetadi.

– Rux-sat-
siz o-lish
mu-m-ki-n
e-mas! Rux-
sat-siz o-lish



ILHOMJON VA UNING ROBOT DO'STI

(Sarguzasht ertak)

mum-kin e-mas!

Ilhomjon stulni qo'yib, konfet olmoqchi edi, robot
kelib, stulga o'tirib oldi.

– Bunga yo'l qo'y-may-man, – dedi robot.

– Menga do'stingman, deganing qani? Menga
bitta konfet olib berolmasang.

– Men se-ning do's-ting-man. Bir-ga o-y-nay-miz.
Am-mo kon-fet ol-may-san!

Ilhomjon uzoq xayol surib qoldi. «Endi nima ish
qilish kerak?» o'yladi u. Oxiri robotni aldamoqchi
bo'ldi.

Robotni Ilhomjon alday oldimikan?

Bu haqda ertagimizning keyingi qismida aytib
beramiz.

(Davomi bor)

Anvar TOJIYEV

– Bolajonlar, bu oy sizlar uchun juda qiziqarli bo'ladi. Boisi, dekabr – «Boshlang'ich sinflar oyligi» hisoblanadi, – deya darsni boshlab yubordi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 4-sinf o'qituvchisi Sevara opa Mirakbarova.

YANGI YIL SARGUZASHTLARI BOSHLANDI!



«Ur-raa... Demak, bu oyda bayramlar ko'p bo'lar ekan-da», deya o'quvchilar xursand bo'lib ketishdi.

Bolalar fan oyligining oshilish marosimida faol ishtirok etdi. «Yangi yil sarguzashtlari» deb nomlangan tadbir juda qiziqarli, ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Ayniqsa, qaroqchi bolalar – Komilbek, Jamoliddin, Ibrohim ijrosidagi raqs barchaga manzur bo'di.

Endi har hafta boshlang'ich sinf o'quvchilari har xil mavzularda tadbirlar tashkillashtirmoqda. Ular o'z qo'llari bilan turli buyumlardan qiziqarli ertak qahramonlarining shaklini yasab, ko'rgazmalar tashkil qilayotir. Faol o'quvchilar esa faxriy yorliq bilan taqdirlanmoqda.

Nigora ABDUNAZAROVA

ERTAK TINGLAB ULG'AYGAN BOLA...

Xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak, masal, doston, afsona va topishmoq hech bir bolani befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, ertak tinglashni istamaydigan bolakay bo'lmasa kerak. Qiziquvchanlik, hayotni o'rganishga ishtiyoq sabab kichintoylar ertak qahramonlariga o'xshashni orzu qiladi. Ular orqali yaxshidan yomonni, rostdan yolg'onni, do'stdan dushmani farqlay oladigan, ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetadi.

O'zbek xalq ertaklari ming yillik tarixga ega ekani haqida bilsangiz kerak?! Shuni qiziq, ulardagi g'oya barcha davrlarda ham dolzarb bo'lib qolaveradi. Misol uchun, chorak asrlik mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlarni aslida xalqimiz necha yillardan beri kutib yashagan. Ularni ertaklarda aks ettirgan. Farvon hayot va tinchlik kabilar bugun haqiqatga aylandi. Bolalar chinakam baxtli hayot og'ushida. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida «uchar ot»larimiz uchib yuribdi. «Quyoshli yurt» pahlavonlari, yengilmas Alpomishlar, Farhodlarimiz jasorati endi ertak emas. Shu bois, biz sinfdan tashqari o'qish darslarida o'tilgan ertaklarni o'quvchilar maktab sahnasida namoyish etishlari orqali

ulardagi ijodkorlikni ham rivojlantirishga harakat qilamiz. Bundan o'quvchilar yayrab ketishadi. Ammo shu payt kichik bir muammo tug'iladi. Ya'ni, bolajonlarning hech biri salbiy qahramon bo'lgisi kelmaydi. Chunki ular yomonlikdan tiyilish, yaxshiga yo'lidosh bo'lishni o'rganib ulgurishgan. Bu obrazlarga faol o'quvchilarni murosa qilib ko'ndirgan bo'lamiz. Shunday qilib, maktab tadbirlarida ertaklarni bolajonlar juda ajoyib tarzda namoyish etib, o'zlariga kerakli xulosalar ham chiqarishadi.

Nargiza XUSHVAQTOVA,
Zeregul MUSAYEVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon
shahridagi 3- va 10-umumta'lim
maktabi kutubxonachilari

1-SINF O'QUVCHISI «KOBALT» SOHIBI BO'LDI

Xabaringiz bo'lsa, yaqinda yurtimizda qishloq xo'jaligi xodimlari kuni keng nishonlandi. Mamlakatimizning chekka-chekka qishloq va ovullari, mahalla-yu guzarlarida ushbu bayram ko'tarinki ruhda tashkil etildi.



E'tiborlisi, Nukus shahridagi Markaziy otchopar maydonida ushbu shodiyona munosabati bilan o'tkazilgan «Hosil bayrami – 2018» sport musobaqasida 1-sinf o'quvchisi Aysuluv Shalabayeva ham munosib ishtirok etdi.

Aytish kerakki, shu kuni otchopar maydoni bo'ylab otida bir, besh, yetti va o'n marta aylanish bo'yicha bellashuvlar o'tkazilgan. O'n aylanish bo'yicha musobaqada marraga birinchi bo'lib Qorao'zak tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 1-sinf o'quvchisi Aysuluv Shalabayeva yetib keldi va bosh sovrin – «Kobalt» avtomashinasi sohibiga aylandi.

SABINAGA TENG RAQIB TOPILMADI

Estoniya poytaxti Tallin shahrida badiiy gimnastika bo'yicha «Christmas cup» xalqaro turniri bo'lib o'tdi.

Turnirda 9 mamlakatdan 341 nafar sportchi ishtirok etdi. Quvonarlisi, bellashuvlar yakuniga ko'ra hamyurtimiz Sabina Tashkenbayeva barcha yo'nalishlar – ko'pkurash, halqa, koptok va tasma bilan mashqlarda oltin medalga ega chiqdi.


Bahslarda, shuningdek, yana bir hamyurtimiz Yekaterina Fetisova ham ishtirok etdi va bulava bilan mashqlarda shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy oldi. Jamoaviy mashqlarda esa hamyurtlarimiz uchta kumush medal (ko'pkurash va 2 final)ni qo'lga kiritishdi.

S. TURSUNOV



SHAXMAT – AQL GIMNASTIKASI

Yaqinda maktabimizda «Olam uzra hilpira, bayrog'im!» shiori ostida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida sportning shaxmat turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Bellashuvda o'g'il bolalar o'rtasida 4-«A» sinf o'quvchisi Haqnazar Safarov 1-, Alisher Haydarov 2-, 4-«B» sinf o'quvchisi Og'abek Saidov esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.



Qizlar o'rtasida 1-o'rinni 4-«B» sinf o'quvchisi Gulruxsora Jumanazarova, 2-o'rinni Parvina Yorluqova, 3-o'rinni esa Zuhra Qurbonova egalladi. G'oliblar maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Nuriddin FAYZIYEV,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
58-umumta'lim maktabining jismoniy
tarbiya fani o'qituvchisi



Kitobning «Jonzotlar nima deydi?» deya nomlangan birinchi bobida barchamizga ma'lum jonzotlar obrazi she'riy misralarda qiziqarli aks ettirilgan. Bu kabi o'ziga xos she'rlar kichik do'st-larimiz zehni yanada o'tkir bo'lishiga ko'maklashadi. Quyida ana shu she'rlardan birini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

**Nomim qiziq – Olmaxon,
Olmani xush ko'rmayman.
Lekin shirin yong'oqni,
Chaqib sira to'ymayman.**

Ikkinchi «Arznomalar, hango-malar, hikoyalar» bobidan esa jonzotlarning g'aroyib savollari

G'ALATI SINOV

Aziz o'quvchilar, sizlarga xushxabarlar ulashishda davom etamiz. Yozuvchi Bahrom Akbarovning «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan yangi «G'alati sinov» nomli kitobi yosh do'st-larimizga manzur bo'lishiga ishonamiz. To'plamdan turli quvnoq she'rlar, ibratli hikoya va qiziqarli ertaklar o'rinda olgan. Kitobni bezagan rang-barang suratlar esa yanada zavqingizni oshiradi.



hamda tasavvurni boyituvchi turli ertaklar o'rinda olgan. Kitobdagi chumchuq va ayiqpolvonning arzlari o'qib zavqlansangiz, «Aqli qaldirg'ochlar» hikoyasidagi qushlarning o'z topqirligi bilan maqsadlariga yetishishlari sizni hayratga soladi.

Xalqimizda jasurlik, birdamlik sifat-lari qadim-qadimdan yuksak baholanadi. Kitobning «Keling, ertak o'qiy-miz» nomli uchinchi bobida

ana shunday fazilatlar ulug'lanadi. Kitob mutolaasiga tutsangiz, yana ko'plab ijobiy qahramonlarni o'zingiz uchun kashf etishingiz aniq. «G'alati sinov» nafaqat siz, balki kichik uka-singillaringizning ham chin do'stiga hamda javoningizdagi eng sevimli kitoblaringizdan biriga aylanishini tilab qolamiz.

**Muhammadsharif
FAYZULLAYEV**

Pazanda qizga!



Aziz bolajonlar! Ko'pincha sizga kattalar sog'lom va baquvvat bo'lishingiz uchun kalsiysga boy mahsulotlarni iste'mol qilish zarurligini uqtirishadi. Shunga ko'ra siz qatiq, yogurt, tvorog kabi sut mahsulotlarini sevimli tanovul qilasiz. Ulardan turli pishiriqlar tayyorlash ham mumkin. Masalan, tvorogdan shirin pirog pishirishga nima deysiz? Keling, bugun birgallikda mazkur shirinlikni tayyorlaymiz.

TVOROGLI PIROG

Kichik pazanda do'stlarim, avvalo, bizga kerakli mahsulotlar ro'yxati bilan tanishib oling: 150 gr margarin, 500 gr tvorog, 1,5–2 stakan un, 1 stakan shakar va 3 dona tuxum, 0,5 choyqoshiq ichimlik sodasi.



Qani, endi ishini boshladik. Avvalo, margarinni un bilan uqalaymiz. So'ng, shakar solib, yaxshilab aralashtiramiz. Masallig'i-mizni uchga

bo'lib, chekkaga olib qo'yamiz. Endi boshqa idishga tvorog solib, shakar bilan qorishtiramiz. Tuxumni ham qo'shgach, masalliqni uchga bo'lamiz. Keyin tovaq unli massaning uchdan bir qismini separamiz. Ustidan tvorogli masalliqning yarmini solib tekislaymiz. Shu tartibda ishini davom ettiramiz. Tayyor bo'lgach esa oldindan qizdirilgan gaz pechiga qo'yib, o'rta olovda pishiramiz. Pirogimiz pishgach, shakar kukuni sepib, chiroyli tarzda dasturxonga tortamiz!

Yoqimli ishtaha!

FOYDALI MASLAHATLAR

Qovoq va behini bo'laklarga bo'lib, shakar sepib, qasqonda dimlab ko'ring. Ana mazza-yu mana mazza!

Agar kasalliklarning oldini olishni istasangiz, har kuni ikki dona olmani qirg'ichdan chiqarib, ustini yopib qo'ying. Bunda temirga boy bu mevaning rangi qoraya boshlashini yaxshi bilasiz-a?! Ana endi uni iste'mol qiling-u, vitaminlarga to'yinib oling!

Ko'pchilik bolalar qatori yogurt mahsulotini yaxshi ko'rsangiz, uni o'zingiz tayyorlab ko'ring! Muzlatgichdagi qatiqdan bir piyola quyib oling-u, unga sevimli murabboingizdan bir-ikki qoshiq qo'shib, yaxshilab aralashtiring. Istasangiz, biror mevdadan to'g'rab, soling.

Nargiza ABDULLAYEVA tayyorladi


BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«SH» HARFLI KROSSVORD

Eniga: 7. Kakaoli shirinlik. 8. Guvohlik so'zining kitobiy atamasi. 9. Qoraqalpog'istondagi tuman. 12. Mayda, oqish bargli yovvoyi o'simlik. 13. Quyosh botishi oldidan ufqda aks etadigan qizillik. 16. Havoning yer sathi bo'ylab harakati. 17. Taniqli italyan kompozitori. 21. Qovun sayillarida o'tkaziladigan bahs. 23. Eng katta qon tomiri. 24. Davolovchi mutaxassis.

Bo'yiga: 3. Shapaloq bargli manzarali o'simlik. 4. Dvigatel valining porshen bilan ulovchi qismi. 5. Faxr, iltifot tuyg'usi. 6. Yaxshilik, ezigulik fazilati. 10. Rus yozuvchisi. 11. Sabzavotdan tayyorlangan yegulik. 14. Fazokor uchuvchi, millatdoshimiz. 15. Surxondaryo viloyatidagi shahar. 18. Alisher Navoiy dostonining bosh qahramoni. 19. Buxoro shahriga berilgan ta'rif.

Yoylar bo'yicha: 1. Asabga ta'sir etuvchi ovoz. 2. Sabzavot ekini. 20. Yozlik oromgoh. 22. Mamnunlik, quvonch.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

17-dekabr 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADOLOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona ma'sul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 24708
Buyurtma – 2913

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Tophirish vaqti – 18:00
Tophirildi – 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08